


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Orolbo‘yi mintaqasi sharoitida oqsilning yaxshi va yomon sifatli kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda qizilo‘ngach kasalliklarini miniinvaziv jarrohlik usullari bilan davolashni rivojlantirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyati aholisi orasida jarrohlik profilidagi kasalliklar tuzilishi o‘rganiladi. Jarrohlik davolashda ochiq va minimal invaziv aralashuvlar nisbati tahlil qilinadi. Ochiq va minimal invaziv aralashuvlardan so‘ng operatsiya davomida va undan keyingi asoratlarni tahlil qilinadi. Qizilo‘ngachning yaxshi va yomon sifatli kasalliklarida, o‘lis hududlardagi tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasiga mos ravishda, qator yuqori texnologiyali va minimal invaziv operatsiyalar joriy etiladi. Yangi turdagi minimal invaziv aralashuvlar ishlab chiqiladi. Joriy etilgan operatsiyalarning yaqin va uzoq natijalari Qoraqalpog‘iston sharoitida o‘rganiladi. Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatining o‘lis hududlarida joriy etiladigan yangi yuqori texnologiyali va minimal invaziv operatsiyalar uchun optimal hisob-kitob (kalkulyatsiya) ishlab chiqiladi. Yuqori texnologiyali va minimal invaziv aralashuvlarni rejalashtirishda optimal davolash-taktik algoritmi ishlab chiqiladi. Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatidagi jarrohlik profilidagi bemorlar uchun yuqori texnologiyali minimal invaziv (laparoskopik, torakoskopik) operatsiyalarni keng joriy etish maqsadida hududiy jarroh mutaxassislarini tayyorlash dasturi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqotlar natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligi xulosasi olinadi. Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.